

# "O'zkimyosanoat" AJ Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasida ishtirok etmoqda.

// 08 November 2024 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-hududiy-tarmoqlararo-sanoat-yarmarkasida-i>



Joriy yilning 7-8-noyabr kunlari Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi "Tinchlik" kichik sanoat zonasida Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi bo'lib o'tmoqda. Yarmarkaning asosiy maqsadi yirik tarmoq korxonalariga mahalliy kichik va xususiy biznes korxonalari tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni yetkazib berishda kooperatsiya aloqalarini tashkil etishdan iborat.



Ushbu yarmarka kimyo sanoati, metallurgiya, elektroenergetika, elektrotexnika, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish sohalariga ixtisoslashgan tarmoq va hududiy korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarni yanada mustahkamlash bilan birga, kichik biznes subyektlari uchun ham yanada katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Xususan, tadbirda Toshkent viloyatidan - 242 ta korxonaga 1,2 ming turdan ortiq mahsulot bilan qatnashmoqda.



Ta'kidlash joiz, sanoat yarmarkasida "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari ham o'z mahsulotlari bilan ishtirok etmoqda.





The image shows an exhibition booth for Uzkimyosanoat. The booth is constructed with a metal frame and features a large blue and white logo at the top. Below the logo, there are three shelves displaying various samples of products in clear plastic jars. Two women, wearing dark blue uniforms with red accents and lanyards, are standing in front of the booth, looking at the samples. The background includes other exhibition booths and a blue carpeted floor. In the bottom right corner, there is a small icon of a building and the text "O'zkimyosanoat" AJ MATBUOT XIZMATI".

**Uzkimyosanoat**

uzkimyosanoat

uzkimyosanoat.uz

(+99878) 140-74-26

"O'zkimyosanoat" AJ  
MATBUOT XIZMATI



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati